



MAKTAB O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MAKTAB, MAHALLA VA OILA HAMKORLIGINING O'RNI

Mirzayeva Kamola Uralovna

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

mkamola09@gmail.com

ilmiy rahbar: p.f.d., professor Mamatov D.N.

Annotatsiya. *Mazkur tezisdagi maktab, mahalla va oila hamkorligining o'quvchilar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati atroflicha yoritilgan. Unda Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahridagi 22-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan amaliyot natijalari asosida maktabning pedagogik jamoasi, mahalla va oila o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligi tahlil qilingan. Maktab o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirishda muhim maskan ekanligi qayd etilib, bu jarayonda pedagoglarning mas'uliyati, o'quvchilarga ko'rsatgan namunasi va axloqiy ta'lim usullariga urg'u berilgan.*

Kalit so'zlar. *Maktab, mahalla, oila, hamkorlik, tarbiya, o'quvchi, intellektual rivojlanish, pedagogik jamoa, milliy qadriyatlar.*

Abstract. *This thesis comprehensively discusses the role and importance of school, neighborhood, and family cooperation in the education of students. It analyzes the effectiveness of cooperation between the school's pedagogical team, neighborhood, and family based on the results of the practice conducted at secondary school No. 22 in Shahrisabz, Kashkadarya region. It is noted that the school is an important place for students to master spiritual and moral values, and in this process, the responsibility of teachers, the example they set for students, and methods of moral education are emphasized.*

Keywords. *School, neighborhood, family, cooperation, education, student, intellectual development, pedagogical team, national values.*

Kirish. "Maktab o'quvchilarini tarbiyalashda maktab, mahalla va oila hamkorligining o'rni" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi doirasida Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahridagi 22-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan amaliyot davomida bir qancha muhim ma'lumot va yangiliklarga ega bo'linib, ularning tahlili amalga oshirildi. Avvalo, maktabning pedagogik jamoasi va oila hamda mahalla vakillarining hamkorlik darajasi va uslublari o'rganildi. Ushbu maktabda o'quvchilarning tarbiyasi uchun uch tomonlama aloqaning samarali ishlashi muhim o'rin tutishi qayd etildi. Pedagoglar tomonidan o'ta-onalar bilan muntazam uchrashuvlar tashkil etilib, o'quvchilarning o'qish jarayoni va xulq-atvori yuzasidan fikr almashilishi, ayniqsa, maktabning mahalla bilan hamkorlik qilishda mahalliy yetakchilar va faollar yordamidan keng foydalanilgani kuzatildi. Mahalla faollari tomonidan maktabdagi turli tadbirlarda faol ishtirok etilib, o'quvchilarga milliy qadriyatlar,



oila an'analari va ijtimoiy mas'uliyat haqida targ'ibot ishlari olib borilgani ham e'tiborga molik jihat hisoblanadi. Lekin hozirgi kunda o'quvchilarning tarbiyasida oila, maktab va mahallaning hamkorligini yanada rivojlantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bugungi globallashuv jarayoni yangi bosqichga chiqqan davrda o'quvchilar tarbiyasini diqqat markazimizda tustishimiz o'ta muhim ijtimoiy vazifamiz hisoblanadi. Shu kabi amaliyot jarayonida ko'rilgan yutuqlar, kamchiliklar hamda ularning yechimlariga quyida to'xtalib o'tamiz.

Asosiy qism. Maktabning tarbiya jarayonidagi o'rni har bir jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy va intellektual rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab nafaqat bilim berish, balki tarbiya berishning ham asosiy maskani sifatida faoliyat yuritadi. Ta'lim va tarbiya o'zaro uzviy bog'liq jarayon bo'lib, maktabda bu ikki yo'nalish birgalikda amalga oshiriladi. O'quvchilar maktab orqali nafaqat ilm-fan asoslarini egallaydi, balki ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni ham o'zlashtiradi. Aynan maktab muhitida o'quvchilar o'z shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi, jamoada o'zini tutish qoidalarini o'rganadi va ma'naviy yetuklik sari ilk qadamlarini tashlaydi. Maktabning tarbiya jarayonidagi o'rni, avvalo, o'qituvchi va pedagogik jamoaning mas'uliyatiga bog'liqdir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarga o'rnak bo'ladigan ma'naviy yetakchi sifatida ham maydonga chiqadi. Har bir dars jarayoni nafaqat ma'lumot yetkazish, balki axloqiy va ijtimoiy tushunchalarni singdirishga yo'naltirilishi kerak. O'qituvchi o'zining xatti-harakatlari, munosabati va insoniy fazilatlari bilan o'quvchilarga ibrat bo'ladi [1]. U o'quvchilarda o'ziga va boshqalarga hurmat, mas'uliyat hissi, ijtimoiy faollik, halollik va adolatlilik kabi fazilatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilishda maktabning o'rni beqiyosdir. O'quvchilar dars jarayonida xalqning boy madaniy merosi, tarixiy yutuqlari va zamonaviy dunyoqarash haqida bilim oladi. Bu jarayon o'z millatiga bo'lgan faxr va sadoqat tuyg'ularini kuchaytiradi, yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Maktab o'quvchilarning tarbiyaviy rivojlanishini ta'minlashda turli tashabbus va metodlardan foydalanadi. Sinfdan tashqari tadbirlar, ijodiy loyihalar, madaniy va sport musobaqalari tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunday tadbirlar o'quvchilarning faolligini, jamoatchilikka xizmat qilishga bo'lgan intilishini oshirib, ularni muloqot qilish ko'nikmalariga o'rgatadi. Shu bilan birga, maktab o'z o'quvchilarini milliy va xalqaro miqyosdagi ko'rik-tanlovlarga jalb qilish orqali ularda ijodiy va intellektual salohiyatni rivojlantiradi. Shuningdek, maktab ichki intizom va madaniyat qoidalarini targ'ib qilishda ham yetakchi o'rinni egallaydi. Tartib-qoidalar, o'quvchilarning bir-biriga va ustozlariga hurmat ko'rsatishi, shuningdek, muammolarni hal qilishdagi muloqot tamoyillari tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biridir [2]. Maktab, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yoshlarni axborotning to'g'ri va foydali manbalaridan foydalanishga o'rgatishi kerak. Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa zamonaviy vositalardan foydalanuvchi yoshlar axloqiy mezonlarni buzmaslik, axborotning zararlisini foydalisidan ajrata olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Bu borada maktab nafaqat nazariy bilim,



balki amaliy ko'nikmalarni ham beradigan maskan bo'lishi lozim. Shu tariqa, maktab tarbiyaning universal maydoniga aylanadi, unda har bir o'quvchi shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, maktabning tarbiya jarayonidagi o'rni, ahamiyati va mas'uliyati har doim yuqori baholanadi. Bundan tashqari mahalla instituti o'zbek jamiyatida asrlar davomida ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lib kelgan va bugungi kunda ham uning tarbiyaviy salohiyati beqiyosdir. Mahalla o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, nafaqat ma'lum hududdagi oilalar va shaxslar uchun uyushma, balki keng ma'noda axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muhitdir. Mahalla tarbiya jarayonida nafaqat oila va maktabga yordamchi, balki mustaqil holda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiruvchi ijtimoiy institut sifatida faoliyat ko'rsatadi. U jamiyatdagi barcha yoshdagi insonlar, ayniqsa, bolalar va o'smirlar uchun axloqiy va ma'naviy qoidalarning targ'ibotchisi bo'lib xizmat qiladi [3].

Mahalla tarbiyaviy salohiyatining asosiy jihatlaridan biri uning o'zaro hamjihatlik va hamkorlik tamoyillariga asoslanganligidir. Mahalla jamoasi bolalar va o'smirlarni jamiyatning muhim bir qismi sifatida qarashga o'rgatadi, ularda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi. Mahalla yosh avlodni jamiyat qoidalarga amal qilishga, xalq an'ana va urf-odatlarini hurmat qilishga undaydi. Masalan, mahalla doirasida o'tkaziladigan to'y, ma'raka va boshqa an'anaviy tadbirlar yoshlarda milliy qadriyatlarga sadoqatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday tadbirlar orqali yoshlarga milliy urf-odatlar, axloqiy normalar va ma'naviy qadriyatlar amaliy tarzda o'rgatiladi. Mahallaning tarbiyaviy salohiyatini kuchaytiruvchi yana bir omil – bu yoshlar masalalari bo'yicha mahalla kengashlarining faoliyatidir. Ushbu kengashlar yoshlarga yordam berish, ularning muammolarini aniqlash va hal etish, shuningdek, tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil qilish bilan shug'ullanadi. Ayniqsa, ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi bolalar va o'smirlar bilan ishlashda mahalla kengashlari muhim rol o'ynaydi. Mahalla vakillari maktab bilan hamkorlikda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqti samarali o'tishini ta'minlash uchun turli madaniy va sport tadbirlarini tashkil qiladi. Bu jarayon yoshlarning salbiy illatlarga berilmasligi, balki foydali va maqsadli faoliyat bilan band bo'lishini ta'minlaydi [5].

Mahallaning tarbiyaviy rolini oshirishda mahalla faollari va yetakchilari muhim ahamiyatga ega. Ular o'z shaxsiy faoliyatlari bilan yoshlarga namuna bo'lishadi, bolalar va o'smirlarni hayotda to'g'ri yo'lni tanlashga undashadi. Shuningdek, mahallada faoliyat olib boruvchi diniy va ma'rifiy tashkilotlar ham tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishda ishtirok etadi. Jumladan, masjidlar va diniy ulamolar yoshlarga axloqiy-etik qadriyatlarni singdirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu tashabbuslar o'quvchilarning diniy-madaniy saviyasini oshirishga, ularni insoniylik, mehr-oqibat, adolat kabi fazilatlarga yetaklashga xizmat qiladi.

O'quvchi tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etuvchi yana bir qatlam bu oila hisoblanadi. Oilaning tarbiya jarayonidagi o'rni har bir insonning shaxs sifatida shakllanishida va jamiyatda o'z o'rnini topishida asosiy ahamiyatga ega. Oila birlamchi tarbiya maskani bo'lib, unda insonning axloqiy, ma'naviy, madaniy va ijtimoiy



ko'nikmalari shakllanadi. Bola dunyoga kelgan ilk kunlaridanoq oila muhitida o'sib, atrof-muhit bilan o'zaro munosabatga kirishishni boshlaydi. Shu bois, oila tarbiya jarayonida nafaqat dastlabki bosqich, balki butun hayot davomida muhim rol o'ynaydi. Oila tarbiyasi orqali bolada o'zini tutish qoidalar, oila a'zolariga hurmat, mehr-muhabbat va mas'uliyatlilik hissi shakllanadi. Oilaning tarbiyadagi birinchi va eng muhim vazifasi bolaga mehr-muhabbat va e'tibor berishdir. Bola oilada o'zini xavfsiz va ardoqli his qilishi uning ruhiy va hissiy rivojlanishi uchun poydevor yaratadi. Oiladagi mehribonlik muhitida bola o'z hissiyotlarini erkin ifodalashni, muloqot qilishni va boshqalarga mehr ko'rsatishni o'rganadi. Ota-onaning bolaga bo'lgan mehr-muhabbati va e'tibori uni o'ziga ishonchli, ma'naviy sog'lom shaxs sifatida voyaga yetkazadi. Shu jihatdan, ota-onaning shaxsiy namunalari bolalar uchun asosiy tarbiya vositasidir. Farzandlar ko'pincha ota-onalarining xatti-harakatlari, gap-so'zlari va qarashlarini o'zlashtirib, ularni hayotda qo'llashga intiladi. Shuningdek, oilaning tarbiyaviy salohiyati undagi axloqiy va ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Oila milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bolalarga singdirishda beqiyos rol o'ynaydi. Ota-onalar bolalarga o'z millati, tili va madaniyatini o'rgatadi, tarixiy meros va xalq an'analari haqida bilim beradi. Aynan oilada bolalar axloqiy me'yorlarni o'zlashtiradi: halollik, adolat, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-muruvvat kabi fazilatlar oilaning kundalik hayoti orqali singdiriladi. Milliy qadriyatlar bilan bir qatorda, oila umuminsoniy axloqiy tamoyillarni ham bolalarga o'rgatadi, bu esa farzandlarni xalqaro doirada ham yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi [4].

Oila tarbiya jarayonining tamal toshi bo'lib, bolalarning hayotdagi barcha yutuq va muvaffaqiyatlarida katta ahamiyat kasb etadi. Oilada shakllangan ma'naviy-axloqiy tamoyillar va shaxsiy fazilatlar insonning kelajakdagi faoliyatiga, jamiyatdagi o'rniga va shaxsiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, oilaning tarbiyadagi o'rni va ahamiyatini anglash, ota-onalar va jamiyat tomonidan bu jarayonni samarali tashkil etishga doimiy e'tibor qaratish zarur. Ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan avlodni voyaga yetkazishda oila hamisha asosiy institut bo'lib qolaveradi.

Xulosa va takliflar. Hamkorlikning samarali usullari maktab, mahalla va oila o'rtasida tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu institutlar o'zaro birlashib, har birining kuchli tomonlaridan samarali foydalanish orqali bolalar va o'smirlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi mumkin. Hamkorlikning samarali tashkil etilishi, avvalo, uch tomonlama ishonch, o'zaro hurmat va birgalikdagi maqsadni belgilash tamoyillariga asoslanishi kerak. Ushbu tamoyillar asosida shakllangan usullar bolalarning ma'naviy va intellektual rivojlanishini yanada yuksaltirish imkonini beradi.

Birinchi navbatda, muntazam va ochiq muloqot hamkorlikning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Maktab, mahalla va oila o'rtasida muntazam muloqotni yo'lga qo'yish orqali bolalarning tarbiyasidagi muammolarni aniqlash va ularga birgalikda yechim topish mumkin. Buning uchun ota-onalar yig'ilishlari, mahalla faollari bilan uchrashuvlar va birgalikdagi maslahatlashuvlar muntazam o'tkazilishi zarur. Bunday uchrashuvlar



davomida tarbiya jarayonidagi dolzarb masalalar muhokama qilinadi, mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari belgilanadi va har bir institutning o'z vazifasi aniqlashtiriladi. Muloqot jarayonida ochiqlik va halollik prinsiplariga amal qilish orqali hamkorlik samaradorligini oshirish mumkin.

Ikkinchi muhim usul – bu o'zaro qo'llab-quvvatlash va resurslar almashinuvidir. Har bir institut tarbiya jarayonidagi o'z rolini aniq tushunib, ushbu rolni bajarishda mas'uliyatni zimmasiga olishi lozim. Masalan, maktab o'quvchilarning bilim olish jarayonini tashkil etishda bosh mas'ul bo'lsa, mahalla ularning darsdan tashqari vaqti mazmunli o'tishini ta'minlashga ko'maklashadi. Oila esa farzandlarning intellektual va ma'naviy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratadi. Mas'uliyatlarni aniq taqsimlash orqali har bir institut o'z kuch-g'ayratini maqsadga yo'naltirishi va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishi mumkin. Uch tomonlama hamkorlikning samarali tashkil etilishida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar va maxsus mobil ilovalar orqali maktab, mahalla va oila o'rtasida tezkor axborot almashinuvi yo'lga qo'yilishi mumkin. Masalan, maktab tomonidan tashkil etiladigan tadbirlar yoki o'quvchilar tarbiyasiga doir ma'lumotlar ota-onalarga onlayn tarzda yetkazilishi, ota-onalar va mahalla faollari esa o'z fikr-mulohazalarini tezkorlik bilan bildirishi mumkin. Bu nafaqat axborot yetkazib berish tezligini oshiradi, balki hamkorlikning sifatini ham yaxshilaydi. Bundan tashqari, birgalikda maqsadli dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish ham muhim usullardan biridir. Ushbu dasturlar maktab, mahalla va oila o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlab, bolalar tarbiyasida aniq natijalarga erishishni kafolatlaydi. Masalan, "Yoshlarni axloqiy sog'lomlashtirish" yoki "Sport va san'at orqali tarbiya" kabi dasturlarni birgalikda ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish orqali bolalarning axloqiy va jismoniy rivojlanishiga katta hissa qo'shish mumkin. Hamkorlikning samarali usullari maktab, mahalla va oila o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali tarbiya jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Muntazam muloqot, resurslar almashinuvi, mas'uliyatni taqsimlash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish kabi usullar bu borada eng samarali yondashuvlardan hisoblanadi. Ushbu usullarni izchil qo'llash orqali yosh avlodni ma'naviy barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli va bilimli shaxs sifatida tarbiyalashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A. (2015). Ta'lim jarayonida maktab va oila hamkorligi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Hasanov, S. (2020). "Mahalla va maktab hamkorligining dolzarbligi." O'zbekiston pedagogika jurnali, 4(1).
3. Rustamov, R. (2018). Oilaviy tarbiya sotsiologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.



4. Бурякова, Н. А. (2020). Участие родителей в гражданском образовании и управлении школой: модель лидерства учащихся. М.: Издательство «Социальное образование».

5. Загвязинский, В. И. (2015). Теоретические модели сотрудничества школы и семьи: практические аспекты управления. М.: Издательство «Педагогические науки».

